

## **O‘SMIRLAR XULQ-ATVORIDA JINOIY XATTI-HARAKATLARNI OLDINI OLISHDA HUQUQIY BILIM VA TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

**Maxmatqulov Ilyos Sadulla o‘g‘li<sup>1</sup>**

**<sup>2</sup>Leytenant, Urgut tuman IIB JXX XPB**

**VYBIG VYMB inspektor-psixologi**

**Sharipov Toxir Davlatovich<sup>2</sup>**

**<sup>2</sup>Leytenant, Urgut tuman IIB JXX XPB**

**VYBIG VYMB inspektor-psixologi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7080647>**

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida “ ...bugungi kunda mahalladagi, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning taqdiri bilan kim qiziqayapti? Bolalar kimlar bilan hamsuhbat bo‘layotgani, o‘qishga qachon borib, qachon kelayotganini kim nazorat qilayapti? Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo‘layapti? Ba‘zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas‘uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsa-da, haqiqat”[1] degan edilar. Shuningdek, jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlarida “profilaktika inspektorlari, voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologlar va jamoatchilik vakillari uchun yoshlar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan ishlash bo‘yicha axborotnomalar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish”[2] kabi vazifalar belgilanib, bu borada o‘smirlarda deviant xulq-atvor motivlari shakllanishining psixoprofilaktikasini samarali metodikalarini aniqlash, tashkiliy chora-tadbirlar mazmuni, hamda barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan va deviant xulqni oldini olishga qaratilgan ilmiy-psixologik tavsiyalar ishlab chiqishga oid ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishni talab etadi.

Tayanch so‘z va iboralar: Psixologik maorif va ma‘rifat, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixokorreksiya va psixik rivojlantirish, psixologik maslahat, psixoterapevtik xizmat.

Insoniyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida odamlarning hayot kechirishi, turmush tarzi, o‘qishi va mehnat faoliyatida qanchalik afzalliklar yuzaga kelgan bo‘lmasin, shu barobarida turli-tuman muammolar ham shakllanayotganligini tan olish zarur. Mazkur muammolarning aksariyati insonlar hayoti va faoliyatiga daxldor bo‘lganligi uchun psixologik muammolar hisoblanadi. Shu bois, har bir muammoni yechishda psixologik bilimlarga tayanish, psixolog mutaxassislar

maslahatiga amal qilish yaxshi samara berayotganligi insonlar hayoti va jamiyat taraqqiyotida ko'p bora kuzatilgan (o'z tasdiqini topgan).

Hozirgi davrda tarbiyasida, turmushida muammolar shakllangan insonlar uchun psixologik xizmat ko'rsatishning beshta yo'nalishi amaliyotda keng joriy etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Psixologik maorif va ma'rifat;
2. Psixodiagnostika;
3. Psixoprofilaktika;
4. Psixokorreksiya va psixik rivojlantirish;
5. Psixologik maslahat.

Psixologik xizmat ko'rsatishning mazkur yo'nalishlari psixoterapevtik xarakterga ega bo'lib, insonlar hayoti, turmush tarzi va mehnat faoliyatiga daxldor muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonlarning turmush tarzida, oilaviy munosabatlarda, ayniqsa, yoshlar hayoti va ta'lim tizimida, umuman, ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida psixologik xizmat ko'rsatish hamda psixoterapevtik jarayonni amalga oshirish ko'p jihatdan har bir inson uchun xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlarni o'rganish, milliy- madaniy, milliy-psixologik hamda hududiy shart-sharoitlarni e'tiborga olish bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko'ra psixologik xizmat ko'rsatish obyektlarini atroflicha o'rganish natijalariga ko'ra, psixoterapevtik yo'nalishlar uchun xarakterli bo'lgan muammolar ko'pincha quyidagi omillar (sabablar) ta'sirida o'smirlarda shakllanishi kuzatildi:

- o'smirlarga xos zarur sifat va fazilatlarining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- hayotda to'g'ri yo'nalish ololmaganligi;
- o'zida shakllanayotgan kamchiliklarni payqamaslik;
- o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik;
- o'ziga (o'z imkoniyatlariga) ishonmaslik;
- yon atrofida gilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlaridan qanoatlanmaslik;
- o'zaro tushunmaslikning kelib chiqishi;
- bezovtalik darajasining oshishi;
- boshqalar faoliyatiga, narsa va voqealar rivojiga to'g'ri baho bera olmaslik;
- odamlar bilan nizolar chiqishiga yo'l qo'yish;
- odamlar bilan o'zaro muomalaga kirishishda uquvsizlik, o'zgalarning faoliyati, munosabati va xatti-harakatlari ta'sirida muammolarning shakllanganligi va boshqalar.

Psixoterapevtik xizmat yo'nalishlari bir-biridan ancha farqliday ko'rinsa-da, ular bir- biri bilan uzviy bog'liq va uyg'unlashgan bo'lib, birinchi navbatda o'smir

shaxsiga amaliy psixologik yordam ko'rsatish uchun quyidagi muammoli vazifalarni hal qilishga yo'naltirilishi zarur:

- o'smirning o'z hayot yo'lida yuzaga kelgan muammoni va uning sabablarini aniqlashi, tahlil qilib bir qarorga kelishi va uni yechishiga;
- o'smir o'zligini anglashi uchun shaxsiga xos sifat va fazilatlarini o'rganishi hamda uni o'zidagilar bilan taqqoslab, psixokorreksiya va psixik rivojlantirishga ehtiyoj sezishiga;
- o'smir o'z atrofidagi odamlar bilan munosabatini o'rganib, xatolarini anglagan holda tushunib tuzatishiga;
- o'smir o'z hayoti davomida yuzaga kelgan muammolarni yechish yo'llarini qidirishi va mutaxassis maslahatiga amal qilishiga;
- muammoni yechish uchun belgilangan qarorni amalda qo'llanilishi va samarasini nazorat qilishiga;
- psixoterapevtik ta'sir jarayonida o'smir shaxsining xulq-atvorida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlarni muntazam mustahkamlab borishiga.

Xullas, o'smirlar xulq-atvori va hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur tarbiyaviy- psixologik chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish, natijalarni to'g'ri baholash hamda asosli qarorlar qabul qilish bosqichlari albatta, psixoterapevtik xizmat tashkilotchisining psixologik savodxonligiga va o'qituvchi, o'smirning ota-onasi hamda jamoatchilikning muntazam hamkorlikda ishlashiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Malakatimiz hayotida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi tub o'zgarishlar ko'p jihatdan yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun zarur barcha shart-sharoitlarni yaratishga yo'nalgan davlat siyosatidagi ustuvor vazifalar sifatida qaralmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash", "Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish[3]"dek muhim vazifalarning belgilangani, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlaridagi g'oyalar, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-sonli Qonuni[4], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF4947-son Farmoni[5], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2017 yil 14 martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-sonli[6], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 6196-sonli farmoni[7], 2021 yil 04-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-sonli qarori[8] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi 472-sonli Qarorlarida yoshlar o‘rtasida keng ko‘lamli ma‘naviy-ma‘rifiy va huquqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish zarurligi alohida ta‘kidlab o‘tilgani ikrimiz dalilidir[9].

Bugun yurtimizda barcha jabhalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, bundan ko‘zlangan pirovard maqsad yurtimizning tinchligini va xalqimiz faravonligini ta‘minlash, davlatimiz rahbarining ta‘biri bilan aytganda, xalqimizni rozi qilishdan iborat. Mamlakatimizda yoshlarning bilimi va ma‘naviy dunyosini boyitish, intel-lektual salohiyatini oshi-rish borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

O‘tgan qisqa davr ichida mamlakatimizda ta‘lim tizimidagi Qonun va farmonlarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan bir qator ilmiy-tadqiqotlar asosan voyaga yetmaganlarning shaxsiyatidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, biroq, ularda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasiga kompleks psixologik ta‘sir ko‘rsatadigan muhim omillar sifatida ko‘rib chiqilmagan.

Shuning uchun ham o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat yoshlar yaratilgan barcha zarur imkoniyatlardan unumli foydalanayotganligi kuzatildi. Shu bois ham ular orasidan yurtimiz dovrug‘ini olamga yoyayotgan iqtidorli va iste‘dodli yoshlar chiqayotganligi bizni faxrlantiradi. Biroq, hayotda o‘z yo‘lini topa olmagan, huquqiy bilimlari yetarli bo‘lmagan va buning natijasida bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotgan yoshlarni ham uchratamiz.

Maktab o‘quvchilarida huquqiy tushunchalarni va jinoyatni kelib chiqish sabablarini bartaraf etishga qaratilgan g‘oya va fikrlarni shakllantirishda,

uzluksiz ta'lim tizimi hamda huquqshunoslik fanining predmeti muhim sanalada. Uzluksiz ta'lim tizimidan ma'lumki, huquqshunoslik fanining uzviyligi umumta'lim maktablarida "Konstitusiya alifbosi", "Konstitusiya olamiga sayohat" (5,6,7-sinflarda), "O'zbekiston davlati va huquq asoslari" (8-sinf) va "Konstitusiyaviy huquq asoslari" (9-sinf) hamda yuqori sinflarda esa "Huquqshunoslik", "O'zbekiston Konstitusiyasi" fanlari o'qitilishi bilan ta'lim jarayoni tashkil etilgan.

Biz maktab o'quvchilarida huquqiy tushuncha va bilimlarni shakllantirishning psixologik masalalarini yoritishda huquqshunoslik fanini o'qitishning asosiy davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari bilan tanishib chiqish muhimligini e'tiborga oldik. Davlat ta'lim standartida "Davlat va huquq asoslari" fani ikki bosqichda, ya'ni sakkizinchi sinfda "Davlat va huquq asoslari" va 9-sinfda esa "Konstitusiyaviy huquq asoslari" fani o'qitilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari yana O'zbekiston tarixi, o'zbek adabiyoti va xalq og'zaki ijodi, o'zbek xalq pedagogikasida keng yoritilgan tarixiy voqyealar, huquqiy tushuncha va me'yorlarni anglatuvchi qadriyatlar tizimidan iborat hikmatlar, maqollar va pand-nasihatlardan o'quv-tarbiya jarayonlarida o'rinli va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa: Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'smirlar xulq-atvorida uchraydigan jinoyat motivlari va boshqa salbiy o'zgarishlarga zamin yaratuvchi shart-sharoitlarni aniqlash bilan bir qatorda ota-ona, murabbiy-o'qituvchi, profilaktika inspektori, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchilari bilan barkamol yoshlarni tarbiyalash uchun yaqindan hamkorlik o'rnatish zarurat ekanligi aniqlandi. Axloqiy-ma'naviy tarbiyaga xos ustuvor vazifalarni izchil va og'ishmay amalga oshirish bilangina o'smirlarda shakllanish ehtimoli bo'lgan jinoyat motivlari va jinoiy xatti-harakatlarni oldini olish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 16 iyun, 119 son, 2-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya soxasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi 472-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.

4. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 37-son, 426-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. - 6 (766)-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 14.03.2017-yildagi PQ-2833-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida "
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2021yildagi PF-6196-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 02.04.2021-yildagi PQ-5050-son "Ichki ishlar organlarining jamoat xavsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2-bet, 6-bandi 4-xatboshi
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 07.06.2019 yildagi 472-son "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlar to'g'risida"